

PUBLITSISTIK MATNNING SINTAKTIK-STILISTIK XUSUSIYATLARI

Usmonova Umida Baxtiyorovna,
Jizzax DPU Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til
kafedrası katta o'qituvchisi
Tel: 90 025 21 04
Sayfiddinova Muxlisa, Jizzax DPU Maktabgacha ta'lim
fakulteti talabasi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Tohir Malik publitsistikaning sintaktik-stilistik xususiyatlari o'rganilgan va ilmiy tahlil qilingan. Yozuvchi asarlarining sintaktik jihatdan o'ziga xosligi maqolalarni nomlanishida ham ko'rinishi va shu kabi jihatlari ko'rsatilgan. Publitsistik matnlarda ham subyekt munosabati maxsus tahlil qilish mumkinligi aytilgan.

Kalit so'zlar: publitsistika, publitsistik matn, asar, ma'no, munosabat, stilistika, uslub, subyekt.

Аннотация:

В данной статье исследуются и научно анализируются синтаксико-стилистические особенности публицистики Таира Малика. Синтаксическое своеобразие произведений писателя также проявляется в названии статьи и подобных аспектах. В публицистических текстах говорится, что отношения субъекта могут быть специально проанализированы.

Ключевые слова: журналистика, публицистический текст, произведение, смысл, отношение, стилстика, стиль.

Annotation:

In this article, the syntactic-stylistic features of Tahir Malik's journalism are studied and scientifically analyzed. The syntactical uniqueness of the writer's works is also shown in the title of the article and similar aspects. In publicistic texts, it is said that the relationship of the subject can be specially analyzed.

Keywords: journalism, journalistic text, work, meaning, attitude, stylistics, style.

Ma'lumki, tilda mavjud bo'lgan turli xil uslubiy yoki sintaktik vositalarning o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilganda, avvalo, ularning nutqning qaysi ko'rinishi uchun xoslanganligi, qo'llanilish darajasi, emotsional-ekspressivligi hisobga olinadi. Nutqning turli ko'rinishlariga oid matnlar sintaksisini o'rganish ma'lum uslubga xos qurilmalarni, shuningdek, matn muallifi tili va uslubiga doir xususiyatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiy til «umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum normaga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi formasi» hisoblanadi. Belgilab qo'yilgan mezonlar asosida og'zaki yoki yozma nutqni shakllantirish, adabiy til talablariga javob beruvchi madaniy nutqni yaratish so'zlovchi yoki yozuvchidan tilning grammatik qurilishini, qonun-qoidalarini yaxshi bilishni va lisoniy birliklarning turli ma'no nozikliklarini ifodalash imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini talab etadi. Til birliklarini to'g'ri tanlay bilish va qo'llash imkoniyati har bir ijodkorda turlicha namoyon bo'ladi.

Yozuvchi Tohir Malikning publitsistik asarlari jamiyat ijtimoiy hayotining eng dolzarb muammolarini ko'tarib chiqqanligi, ifoda-tasvir vositalariga boyligi, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Yozuvchi asarlarining sintaktik jihatdan o'ziga xosligi maqolani nomlashida ham ko'rinadi. Ma'lumki, sarlavha quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) maqolani nomlash; 2) maqolaning mazmunini bildirish; 3) reklamalilik (8.27.b). Masalan: «Men tanlagan yo'l», «Poydevor», «Yozuvchi va jamiyat», «So'z qadri», «Avlodlar hukmi», «Dunyoqarash» (T.Malik, Tanlangan asarlar, ettinchi jild.- Toshkent: Sharq 2008) kabi so'z va so'z birikmasi - sarlavhalar maqolani nomlashdan tashqari o'quvchi e'tiborini jalb etish, maqola mazmuni bilan tanishishga qiziqtirish, ta'sirchanlikni ta'minlash, reklamalilik kabi bir qator vazifalarni ham bajarmoqda.

Tohir Malik publitsistik asarlarining ayrim sintaktik xususiyatlari quyidagi hollarda aniq ko'zga tashlanadi:

Yozuvchi publitsistik asarlari dialogik xarakterda bo'lib, jurnalist savollari va muallif javoblaridan iborat. Masalan: Sizningcha bola tarbiyasiga kim

ustaroq? Bobo-buvilarmi yoki ota-onalar?, — Sizningcha 21 asrda 20 yoshga kirgan o‘g‘il-qizlarda qanday sifatlar ko‘p uchrayapti? Ijobiymi yoki salbiymi?, Bugungi hayotingiz, oilangiz haqida ham bilsak? O‘z hayotingizda ham rosmanga‘aroyib hodisa ro‘y berganmi?(T.Malik) kabi hayotning maishiy tomonlari, yozuvchining turmush tarzi bilan bog‘liq so‘roq gaplar ko‘p qo‘llanilgan. Dialogning bu shakli, asosan, publitsistik matnlarga xos bo‘lib, u jurnalist kommunikativ maqsadining amalga oshishiga xizmat qilib, o‘quvchining e‘tiborini jalb etish vazifasini bajaradi.

Bundan tashqari dialogik nutqda so‘roq gaplardan ham unimli foydalangan, so‘roq gaplarda suhbatdosh so‘zlovchining so‘rog‘iga javob berishga, unga o‘z munosabatini bildirishga undaladi ular qo‘yidagicha ifodalangan: -Bolaligingizda qandan o‘yinlar o‘ynagansiz?

-Biron nimadan naroziligingiz ham bormi?

-Shuning uchun ayrim manzaralarni shavqatsizlik bilan tasverlaganmisiz?

(T.Malik. Darakchi gazetasi. 2000-yil).

Yozuvchi publitsistikasida uyushiq bo‘lakli gaplar ham keng qo‘llanilgan. Gaplarda uyushiq bo‘laklar belgili yoki belgisiz shakllarda qo‘llanilgan. Bu holatlarda ham ma‘lum bir uslubiy maqsad ko‘zda tutilgan. Masalan, quyidagi gapda grammatik ko‘rsatkich bo‘lgan tushum kelishigi qo‘shimchasining uyushiq bo‘laklarning oxirgisiga qo‘shilishi umumiylik mazmunini ifodalagan: Ota-onasi, oila a‘zolari, qarindoshlari, qo‘shnilari, hamkasblarini ranjitib yurgan odam besh vaqt namoz o‘qib qo‘ygani uchun Xudoning roziligiga yetisha olarmikin?(T.Malik, Til va adabiyot jurnali, 1996-yil).

Har bir uyushiq bo‘lakning grammatik ko‘rsatkich olgan holda ishlatilishi gapda ifodalanayotgan mazmunni yanada kuchaytirishga xizmat qiladi: Bola tug‘ilgunicha o‘zaro hurmatni, ozodalikni kasb qilib olishlari kerak. Bir-birlariga baqirmaslikni, gap qaytarmaslikni, birovlarini g‘iybat qilmaslikni o‘rganib olishlari kerak. Agar o‘rganmasalar, farzandlari qaysar bo‘lsa, gap qaytarsa, baqirsa, buyurilgan ishni bajarmasa aybni o‘zlaridan qidirsinlar (T.Malik Til va adabiyot jurnali, 1996-yil).

Gap bo‘laklarining uyushgan tarzda qo‘llanishi gapda ifodalanayotgan fikrlarni yanada bo‘rttirib tasvirlashga, shuningdek, ta’sirchanlikni oshirishga, matnga publitsistik ruh bag‘ishlashga xizmat qiladi. Masalan, publitsistik matnlarda undov gaplarning uyushiq tarzda qo‘llanishi fikrni ta’sirchan ifodalashga xizmat qilgan: «Navoiy bobom!» yoki «Bobur bobom!» deb lof urganimiz bilan ularning ijodidan bebahra bo‘lsak uyat emasmi? Tasavvur qiling, shunday davraga yozuvchi keldi. Ziyofatda ichib, mast bulib olib, oyog‘ini dasturxonga uzatganicha og‘ziga kelgan gaplarni vaysay boshladi. Alloh saqlasin!”, “Ehtimol «ahmoq» degandirlar. Ba’zi onalarga o‘xshab: «Baloginaga uchra!», «Qo‘ling sinsin!», «Basharang qursin!» degan la’natlar onamizning tillaridan sira uchmagan. Shundaylardan bo‘lishdan Xudo asrasin!” (T.Malik, marifat gazetasi,1993-yil).

Muallif tomonidan qo‘llangan «Qozonga yaqin yursang — qorasi yuqadi»,«O‘g‘ri qarisa so‘fi bular...» ,«Och qornim — tinch qulog‘im» kabi makollar publitsistik emotsional-ekspressivligini oshirishga xizmat qiladi.

Kirish so‘zli gaplar yozuvchi individual uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatishga xizmat qilgan. Misollar: -Shubhasiz, Vatanga muhabbat tushunchasini ikki ravishda urganish mumkin.

-To‘g‘ri, madhetmoq ham lozim, ammo bu bir zarradir xolos.

-Har sanday asardagi voqealar,albatta, qandaydir hayotiy asoslari bo‘ladi.

- Xullas, dilimizdagi diyonat bizlarni shunga da’vat etadi.

kabi.(T.Malik, Postda gazetasi.2006-yil).

Tohir Malik publitsistikasi matnlarida yoyiq sodda gaplarning qo‘llanish darajasi qo‘shma gaplarga nisbatan ancha yuqori. (9.23.b). Bunday matnlarda qo‘shma gaplarning teng va tobe tarkibli turlari ko‘p qo‘llanilib, ular birinchi qismlar yoki ikkinchi qismlari bir tarkibli gaplardan iborat bo‘lganda matnda o‘quvchiga ma’lum bir voqea-hodisalar to‘g‘risida axborot yetkazish, ta’kidlash, voqealarning ketma-ket amalga oshishi, xulosalash, urg‘u berish, undash, izohlash, qat’iylik, eslatish kabi qator ma’no munosabatlari ifodalanadi.* (7.15-16.b). Sinchkov so‘z san‘tkori Tohir Malikning publitsistik asarlarida subyekt

tushunchasini ham maxsus tahlil qilish mumkin: Mantiqiy tushuncha sifatidagi sub'ekt hukmning tarkibiy qismini, ya'ni ikkita a'zodan birini ifodalaydi. Har qanday darak ma'lum bir hukm ifodalaydi. Hukm esa ikki a'zoning sub'ekt va predikat qismlarning o'zaro munosabatidan tashkil topadi. Bu hukmning moddiylashtiruvchisi, uning ifodalovchisi bo'lgan har qanday gap mantiqiy jihatdan ikki qismdan tashkil topadi deganidir. Masalan, Ayriliq azobi keksalik yoshidagi erga va xotinga boshqa-boshqa tarzda ta'sir etadi (Tohir Malik "7x7" gazetasi, 2005.) gapi mantiqiy jihatdan ikki qismning subyekt va predikat qismlarning munosabatidan tashkil topgan. Ayriliq azobi - subyekt qism, keksalik yoshidagi erga va xotinga boshqa-boshqa tarzda ta'sir etadi- predikat qismidir.

Mazmuniy nuqtai nazardan esa unday emas. Yuqoridagi jumla mazmuniy jihatdan bir qancha mazmuniy qismlardan tashkil topadi. Subyekt va predikat qismlar esa bir necha mazmuniy qismlarning bittasi sifatida ishtirok etadi. Yuqoridagi jumlada azobi - mazmuniy sub'ekt, ta'sir etadi -mazmuniy predikatdir. Bu jumlada subyekt va predikatdan tashqari temporalis (zamon), instrumentalis (vosita) kabi qismlar ham ishtirok etishi mumkin.

Ko'rinadiki, mazmuniy va mantiqiy sub'ekt va predikat tushunchalari bir-biriga yaqin bo'lsa ham, lekin ular qimmat jihatdan bir-biridan katta farq qiladi.

Subyekt ko'pincha bosh kelishikdagi ot orqali ifodalanib, gapning egasi vaziyatida kelishi mumkin bo'lsa ham, lekin ko'pincha bu holat buziladi. Bu esa gapning mazmuniy va shakliy tuzilishi bir-biri bilan doimo uzviy bog'liq bo'lgan, bir-biriga nisbatlanuvchi, ayni paytda bir-biridan farqlangadigan nisbiy mustaqil qismlar ekanligini ko'rsatadi. Yozuvchining ichki dunyosi bilan tanishish qiyin (T. Malik 8-jild. Ushlang, o'g'rini. 138-b.) tipidagi gaplarda yozuvchining bo'lagi mazmuniy sub'ektni bildirsa ham, sintaktik jihatdan ega vazifasida kela olmaydi. Bunday holatda shakliy tejamlilik tamoyili asosida sintaktik va semantik tuzilish birliklari o'rtasida nomuvofiqlik paydo bo'lgan. Logik va sintaktik kategoriyalar: Ta'na o'rinlidir (Tohir Malik "Bekajon" gazetasi, 2006, iyul.) tipidagi gaplarda bir-biriga mos keladi. Bu gap hukmni tasdiq hukmni ifodalaydi, bunda grammatik ega logik sub'ektni, grammatik kesim - logik predikatni bildiradi. Lekin Direktorlik u

uchun baxt emas (T. Malik 8-jild. Ushlang, o'g'rini. 154-bet) tipidagi gaplarda bu holni ko'rmaymiz. Bunda ega (direktorlik) logik obyektни ko'rsatadi, logik subyektни esa ikkinchi darajali bo'lak (u) ko'rsatadi.

Xullas, Tohir Malik jamiyat va tabiatda bo'layotgan har bir o'zgarish, har bir hodisaning zukko kuzatuvchisi sifatida adabiy tilimizning nozik qirralarini angelay olgan va tildagi har bir birlikni uslubiy vosita sifatida qo'llay olgan mohir so'z san'atkoridir. Yozuvchining publitsistik asarlari matnini lingvostilistik jihatdan tadqiq etish, adibning individual uslubi, adabiy til vositalaridan foydalanish mahorati to'g'risida muayyan xulosalarga kelishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

(List of references):

1. Абдусаидов А. Язык газеты и литературная норма: Автореф.дис....канд.филол.наук. – Ташкент, 1988;
2. Абдусаидов А.. Газета жанрларининг тил хусусиятлари: Филол.фан.д-ри. ...дис.автореф. – Тошкент, 2005;
3. Абдусаидов А.. Газета жанрларининг тили ва услуби. – Самарқанд, 2001;
4. Абдусаидов А.. Газета тилида мақоллардан фойдаланиш. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1987;
5. Абдусаидов А.. Газета тилининг лексик-стилистик хусусиятлари. – Самарқанд: СамДУ нашри, 1991 ва бошқалар.
6. Бобоева А.Газета тили ҳақида.Тошкент: Фан, 1983.Б.27.
7. Джумабаева Д.Ш. Мустақиллик даври публицистик асарларидаги қўшма гаплар талқини: Филол.фан.номз. ...дис.автореф. – Тошкент,2006, 15-16-бетлар.
8. Курбанов Т.И. Публицистический стиль современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ...канд.филол.наук.Ташкент,1987.
9. Мамажонов А. Стилистические особенности сложных предложений современного узбекского литературного языка: Автореф.дис. ...д-ра филол.наук. – Ташкент, 1991, с.23